

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.E.Toshmurodov

Yosh kurashchilarning harakat ko'nikmalarini shakllantirishda tayanch-harakat apparati harakatchanligini rivojlantirish metodikasi 107

J.M.Hamrakulov

"Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash..... 114

D.S.Abduqodirov

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari 117

R.A.Jo'rayeva, M.A.Hojiyeva

Bo'lajak filolog-mutaxassislarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish – malakali mutaxassislar tayyorlash omili 120

G.I.Otaboyeva, Z.G.Mamataliyeva

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda texnologik yondashuv 123

O.X.Rashidova

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish..... 126

Z.D.Rasulova

Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish 131

Н.Э.Юлдашева

Эффективные формы и методы развития профессиональной компетентности учителей физического воспитания 136

Е.М.Любимова, А.И.Кудряшова, М.К.Ахмадалиева, К.Д.Патидинов

Обучение цифровым инструментам и ресурсам студентов - бакалавров педагогического образования 139

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli 145

M.I.Ne'matov

Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari..... 152

I.X.Turdiboyev

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha ayrim mulohazalar 160

IQTISODIYOT**X.X.Бозаров**

Совершенствование научно-методических основ развития малого бизнеса в условиях инновационной экономики 164

FALSAFA**N.S.Badriddinova**

XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrda falsafiy va tasavvufiy qarashlar 171

B.B.Dehqonov

Bahouddin Naqshbandning inson kamoloti haqidagi qarashlari..... 175

O.R.Sultonova, S.S.Sadullayev

Qishloq yoshlarini iqtisodiyot tafakkurini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni va ahamiyati 180

I.J.Jabborov

Shayx Najmiddin Kubro ruboilyarida ishq falsafasi 184

G.N.Navro'zova

Xoja Ahror Valiy o'zlikni anglash xususida: qiyosiy-falsafiy tahlil 187

M.E.Xujamov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ilmiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni..... 191

F.A.Ibroximov

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholi huquqiy madaniyatining ahamiyati 197

**УО'К: 37.091.2****BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARIGA
TAYYORLASH BO'YICHA AYRIM MULOHAZALAR****НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ ДЛЯ
МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ****SOME CONSIDERATIONS FOR THE TRAINING OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS FOR
INTERNATIONAL ASSESSMENT STUDIES**

Turdiboyev Ilhomjon Xayotjon o'g'li 
Farg'onan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada xalqaro PISA dasturi mazmun – moxiyati, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tayyoragarlik ishlari, dastlabki natijalar taxlili, bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar xaqida fikr yuritilgan. Bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashda ularda shakllantirilishi lozim bo'lgan tabiiy – ilmiy savodxonlik kompetetsiyasini shakllantirishga ustivorlik berilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются содержание и сущность международной программы PISA, подготовительная работа, проводимая в нашей стране, анализ предварительных результатов, а также задачи, которые необходимо решить для подготовки будущих учителей химии к международным оценочным исследованиям. Приоритет отдается формированию естественнонаучной компетентности, которая должна формироваться при подготовке будущих учителей химии к международным оценочным исследованиям.

Abstract

The article examines the content and essence of the international PISA program, the preparatory work carried out in our country, the analysis of preliminary results, as well as the tasks that need to be solved to prepare future chemistry teachers for international assessment studies. Priority is given to the formation of natural science competence, which should be formed when preparing future chemistry teachers for international assessment studies.

Kalit so'zlar: PISA, tabiiy – ilmiy savodxonlik, kreativ, kompetensiya, produktiv, reproduktiv, kognitiv, integrativ, differensial, fanlararo aloqadorlik, ekologiya va atrof muxit muxofazasi.

Ключевые слова: PISA, естественно-научная грамотность, творческая, компетентность, продуктивная, репродуктивная, когнитивная, интегративная, дифференцированная, междисциплинарность, экология и охрана окружающей среды.

Key words: PISA, scientific literacy, creative, competence, productive, reproductive, cognitive, integrative, differentiated, interdisciplinarity, ecology and environmental protection.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga borib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarini baholash dasturi reytingi bo'yicha jahoning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'llim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish va boshqa bir qator ustivor vazifalar belgilangan[1].

PISA – 15 yoshli maktab o'quvchilarini bilim darajasini baxolash bo'yicha xalqaro dastur xisoblanadi, soddarroq qilib tushuntirganimizda ushbu dastur- bolalarni hayotda qo'llay olishi mumkin bo'lgan bilim va ilmini baxolashdir.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasining Xalqaro baholash tadqiqotidagi ishtirokiga tayyoragarlik ko'rish holati va o'quvchilarini ilmiy savodxonliklarini rivojlantirishga oid topshiriqlar ishlab chiqish va seminarlar tashkil qilish bir qator yetakchi mutaxasisi va ekspertlarga topshirilgan. Ular tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma va seminar mashg'ulotlari o'quvchilarini xalqaro baholash

PEDAGOGIKA

tadqqiqotlaridagi savodxonliklarini shakllantirishga xizmat qilishi maqsad qilingan. Ulardan ayrimilarini keltirib o'tishni o'rinni deb xisoblaymiz. Jumladan,

A.A. Ismailov, G.O.Tog'aeva, S.R.Akbarova, D.Asqarovalarning "Xalqaro tadqqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash" qo'llanmasida PISA- o'quvchilarning savodxonligini baholash dasturi, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlikni baholash uchun topshiriqlardan namunalar keltirilgan [2;3]

Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi "O'quvchilarning matematik, tabiiy-ilmiy fanlar hamda o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan topshiriqlar to'plami"da matematik savodxonlikni baholash, tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonligini baholash bo'yicha topshiriqlardan namunalar keltirilgan. Keltirilgan topshiriqlarni barchasi PISA xalqaro baholash tadqqiqotlarda o'quvchilarga berilgan topshiriqlar bo'lib bu topshiriqlar o'zbek tilida mualliflar tomonidan tarjima qilingan.

A.A.Ismailov, X.J.Daminov, N.A.Karimov, X.P.Ahmedov, G.O.Tog'aeva, Z.A.Kasimovlar muallifligidagi "O'quvchilarni xalqaro tadqqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnomaning 1-sonida Xalqaro tadqqiqotlarda o'quvchilarning matematik, tabiiy fanlar, o'qish savodxonligini va kreativ fikrlash bo'yicha topshiriqlardan namunalar keltirilgan. Bu topshiriqlarni barchasi Xalaro baholash PISA tadqqiqotlarining toshiriqlari bo'lib, bu topshiriqlar tajribadan o'tkazilgan [4]

2023 – yilda O'zbekiston ilk marotaba qatnashgan maskur dastur tadqqiqotlari natijalariga ko'ra, unda ishtirok etgan o'quvchilar 81 da davlatdagi tengdoshlari orasida matematika bo'yicha 72 – o'rinni, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi yo'nalishlarida 80 – o'rinni egallagan ya'ni uchala yo'nalishda ham oxirni o'ntalikdan joy olgan[5].

Ushbu natijalar taxlilidan ma'lum bo'ladiki, bu borada olib borilayotgan ishlarni tubdan qayta ko'rib chiqish, bu soxadagi ilg'or mamlakatlarni ish tajribalarini o'rganish, uzlusiz ta'lim tizimini shu yo'nalishga moslashtirish, o'quv dasturlari va darsliklarini muvofiqlashtirish, bo'lg'usi o'qituvchilarni ushbu yo'nalishga tayyorlash dolzarb ahamyat kasb etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tabiiy-ilmiy savodxonlik deganda o'qituvchining tabiiy fanlarga oid terminlarni bilishi, idrok qila olishi, shu fanlarga oid bo'lgan barcha muammolarga fikr bildira olishi, hamda bu muammolarni bartaraf qila olishi tushuniladi. Tabiiy-ilmiy savodxonlikka ega bo'lgan mutaxasis tabiiy fanga oid ziddiyatli vaziyatlarni, texnologiyaga oid muammolarni o'zida bor bilimlariga assoslangan holda muhokamalarda qatnasha oladi va bunday vaziyatlarda qanday ish ko'rish zarurligini biladi.

Zamonaviy bilimlar integratsiyasi, tabiatshunoslik fanlariga doir bilimlar bilan chegaralanmay, inson va tabiat orasidagi munosabatlarning murakkablashganligini inobatga olib, ularga tegishli hodisalarni tashqaridan turib alohida o'rganish zarurati mavjud.

Shu ma'noda tabiiy-ilmiy fanlar turkumiga mansub kimyo fanlarini integrativ tashkil etish asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini e'tirof etmoqda. Bugungi kun o'quvchisini zamon talablariga mos holatda bilim bilan qurollantirish, ularning xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash, pirovardida ularning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish ko'p jihatdan o'qituvchining tayyorgarlik mexanizmlariga bog'liq bo'ladi. Kimyo fani o'qituvchilarining fan doirasidagi unga yaqin fanlarning integrativ aloqadorligi asosida tabiiy-ilmiy savodxonlik darajalarini bosqichma-bosqich shakllantirib, uni rivojlantirib borishi zaruriy talab hisoblanishini inobatga oigan holatda, birinchi galda, oliv o'quv yurtlari talabalarining tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishga e'tibor qaratish zarur. Bunda fanni o'zlashtirishda biologiya, kimyo, fizika, geografiya, ekologiya, astronomiya, informatika, bioinformatika fanlari bilan integrativ yondashuvni tizimli tashkil etish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda jahon talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kimyo o'qituvchilarni tayyorlashga imkon yaratadigan innovatsion ta'minotni yaratish, tashkillashtirish va ta'limda keng foydalanish eng dolzarb masalaga aylangan.

S.Y.Andreyeva takidlaganidek, tanlangan materiallar fanning o'quv dasturi talablariga mos kelishiga, bo'lajak kimyo o'qituvchilarining bilimlarni qynalmasdan o'zlashtirib olishiga, ularning ilmiy dunyoqarashini, amaliy tafakkurini kengaytirishiga, mustaqil va ijodiyl fikrlashini, mantiqiy mushohada yuritishini o'stirishiga va shu kabi qator vazifalarni qamrab olishiga e'tibor qaratilishi lozim [6].

Bular esa o'z navbatida xalqaro baholash tizimiga kiruvchi PISA topshiriqlarini tayyorlash va amaliyatga joriy etishda tayyorgarlik vazifalarini o'taydi. Ta'lism jarayoni, eng avvalo, talabalar diqqatini to'g'ri yo'naltirishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, taqdimot materiallaridan samarali va o'rinni foydalanish, ta'lism oluvchida ixtiyoriy ravishda diqqatni yuzaga keltiradi, darsga qiziqishini oshiradi, jarayonda faol ishtirok etishga undaydi. Ta'lism jarayonida ta'lism beruvchining vazifasi o'quvchilarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni bilim olishga yo'naltirish, motivatsiya berish, mustaqil fikrashga o'rgatish, muammolarni yechimi ustida ishslash, amaliy xayot bilan bog'lash, tabiiy va ilmiy savodxonligini oshirishdan iborat bo'lishi lozim.

J.Piajening fikricha, bolaning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lism – bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir oz tezlatishga yoki sekinlashtirishga qodir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, ta'lism rivojlanish qonunlariga bo'yusunishi kerak. Ta'limgning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlari pishib yetiladigan muayyan yoshidan qat'iy nazar, bog'liqligi ana shundan kelib chiqadi. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Zarur sharoit tug'ilganda ta'lism mantiqiy fikrash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin zamin rivojlanishga turki bo'lgan bir vaqtida o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasini xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi. Ta'limgning imkoniyatlari juda keng bo'lsada, biroq cheksiz emas.[7].

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik va kreativ fikrash kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor hisoblanadi. Yuqoridagi fikr-mulohazalar bo'yicha izlanishlar olib bordik, ular natijasida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik. Bularga:

- bo'lajak kimyo o'qituvchilarida ta'lism jarayoni va malakaviy amalyot davrida tabiiy va ilmiy savodxonlik borasidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish;
- o'qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan tizimli va samarali foydalanish, o'qitish metodlarini mavzudan kelib chiqqan xolda tanlash;
- o'quvchilarga differensial yondashuv, turli metodlarni qollagan holda ularni bilim olishga yo'naltirish, berilayotgan axborotlarni tanqidiy qabul qilish, mustaqil fikrashga o'rgatish, berilayotgan bilimni amaliy xayot bilan bog'lab tushuntirish;
- o'quv materiallari va tanlanadigan mavzular mohiyatini produktiv, reproduktiv va kognitiv mazmun bilan boyitish;
- ijodiy topshiriqlar mazmunida ta'lism jarayoniga olib kirishning integrativ, kompetensiyaviy va fanlararo aloqadorlik yondashuvlaridan foydalanish.

• tabiiy fanlarni o'qitishda bugungi kunda butun dunyo muammosiga aylangan ekologiya va atrof muxit muxofazasiga aloxida e'tibor qaratish, bunda ekologik muammolarni kelib chiqish sabablari, omillari, chiqindilar muammosi va uni bartaraf etish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lAMDAGI ishlarni xayotiy misollar orqali tushuntirish, bu jarayonlarda ongli ravishda bevosita ishtirok etish, tabiat va uning nematlariga ongli munosabatni shakllantirish orqali talabalarda ilmiy va tabiiy savodxonlikni shakllantirishga aloxida e'tibor qaratish;

• ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish, ilmiy savodxonlik asosida har bir savolga javob berish va talabalarning ilmiy savodxonligi muammosi yechimiga yo'naltirilgan ta'lism modelini yaratish, innovatsion ta'lism orqali kimyo o'qitish, ilmiy savodxonlikning konseptual tushunchalari va ularni ahamiyati hamda yaxshilash usullarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb axamyat kasb etadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda bo'lajak kimyo o'qituvchilarida o'quv jarayonining hissiy tomoni haqida ham g'amxo'rlik qilish ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Bu muammo muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ta'limgning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi g'oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuchaytirish lozim. Ijobiy tuyg'ular o'quv mehnatinining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi.

Qadimda yunonlar juda ajoyib iborani qo'llaydilar: "Talaba - to'ldirilib turilishi kerak bo'lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo'lgan mash'ala". Bu fikrning tagida chuqur ma'no bor. Ta'lism jarayonini bugungi kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishdan iboratdir.

XULOSA

Konsepsiyada qo'yilgan ustivor masalani amalda bajarish, ya'ni 2030-yilga borib PISA reytingi bo'yicha jahoning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish uchun belgilangan vazifalar bilan bir qatorda bizni fikrimizcha, Oliy ta'limga muassasalarida taxsil olayotgan talabalarini ham shu yo'naliш bo'yicha tayyorlash muhim axamyat kasb etadi. Zero, bugungi talaba – ertaga o'qituvchi sifatida yosh avlod ta'limga tarbiyasiga ma'sul shaxs xisoblanadi. Bugun zamonaviy bilim, yuqori tafakkur, axborot texnologiyalari va chet tillari bo'yicha mukammal bilimga ega bolgan, raqobatbardosh kadrlar mustaqil O'zbekistonimizni dunyo miqyosida barcha soxalar qatori ta'limga soxasida ham o'z o'rni va nufuziga ega bo'lishida asosiy lokomativga aylanishi shubxasizdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PF-5712-son farmoni
2. Asqarova D., Akbarova S. O'quvchilarни tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan topshiriqlar to'plami//Xalqaro tadqiqotlarga tayyorlarlik ko'rish uchun. web-site: toshkentshxtbb.uz
3. Ismailov A.A., Tog'aeva G.O., Akbarova S.R., Asqarova D. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash//Toshkent. 2019. -B.112
4. Ismailov A.A., Karimov N.A., Haydarov B.Q., Ismailov SH.N., Turgunbayev R., Xafizov S., Mirzaahmedov M., Sanayeva M.SH., Soibova I., Muxtorova R., Roslova L.O. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash//Metodik qo'llanma. Toshkent. 2019. -B.90
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/06/pisa/>
6. Андреева С.И. Дидактические условия и технология активизации познавательной, творческой деятельности учащихся. На примере курса химии// автореферата по ВАК РФ 13.00.01, кандидат педагогических наук-2003.-С.22
7. Бурменская Г.В., Курбатова М.Б., Ж. Пиаже. Экспериментально-психологический анализ метода «когнитивного обучения» Вопросы психологии. Москва. 1983. №. 2. -С.113